

61010400 - Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

61010400 - Turizm (Faoliyat yo`nalishlari bo`yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi va sirtqi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

61010400 - Turizm (Faoliyat yo`nalishlari bo`yicha) ta’lim yo‘nalishi – fan va turizm sohasidagi ta`limy o`nalishi bo`lib, turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning huquqiy-me`yoriy asoslarini takomillashtirish, turistik korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, mahsulot va xizmatlarni reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, turizm korxonalarida xizmat ko‘rsatish faoliyatini tashkil etish, xizmatlar bozorini segmentlash, turizm mahsulot iste’molchilari xulq-atvorini o‘rganish, turizm korxonalari faoliyatini boshqarish, raqobatbardoshlik holatini tahlil qilish, turizm korxonalarini dasturini tuzish, turli mulkchilik shaklidagi turistik va xizmat ko‘rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat turistik korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- mehmonxona komplekslari, sog‘lomlashtiruvchi maskanlar va ular bilan bog‘liq joylashtirish vositalari;
- turizmning soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- turizm sohasida vaziyatli va tizimli yondashuv tamoyillarini tadbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- turizm tashkilotlari va korxonalarida zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari;
- turistik firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi turistik korxonalarни boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta'minlash;
- turizm sohasi bilan bog'liq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari.